



BUXORO VILOYAT
STATISTIKA BOSHQARMASI

BUXORO VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQARISHI

**2021- YIL YANVAR-APREL
(DASTLABKI MA'LUMOT)**




Buxoro viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

(2021- yil yanvar-aprel)

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2021- yilning yanvar-aprel oylarida viloyat korxonalarini tomonidan 5207,3 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2020- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 86,6 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi (94,6 %)ni tashkil etdi.



B-Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, **C**-Ishlab chiqaradigan sanoat **D**-Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash, **E**-Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish.


Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI* % da



Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi pasayishining asosiy omili bo'lib, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida - 38,2 % ga, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning - 9,1 % ga hamda suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishning - 15,9 % ga pasayishi kuzatildi.

***Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi** ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'satkichdir.

Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati



Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2021- yilning yanvar-aprel oyida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 62,6 mlrd. so‘mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,2 % ini tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, % da



Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdag'i sanoat mahsulotlarini ishlab chigarish


O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da



Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdag'i sanoat mahsulotlarini ishlab chigarish

Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar-aprel	2021- yil yanvar-aprel	Farqi +/-
Oltingugurt , t.	456,0	266,0	-190,0
Shag‘al , t.	12392,0	0	-12392,0
Neft va tabiiy gaz qazib olish bilan bog‘liq burg‘ilash xizmatlari, mln. so‘m.	69457,4	39895,1	-29562,3

Ishlab chiqaradigan sanoat





2021- yilning yanvar-aprel oyida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 4925,2 mlrd. so‘mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 94,6 % ini tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da




O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,1 % ni (2020- yilning yanvar-aprel oylarida – 0,1 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 1,9 % (1,6 %), o'rta-quyi texnologiyali – 48,0 % (58,4 %) va quyi texnologiyalisi – 50,0 % (39,9 %)ni tashkil etdi.

Yuqori texnologiyali	O'rta-yuqori texnologiyali
 Ulushi % da <div style="display: flex; justify-content: space-around;"> 0,1 2020- y. </div> <div style="display: flex; justify-content: space-around;"> 0,1 2021- y. </div>	 Ulushi % da <div style="display: flex; justify-content: space-around;"> 1,6 2020- y. </div> <div style="display: flex; justify-content: space-around;"> 1,9 2021- y. </div>
O'rta-quyi texnologiyali	quyi texnologiyali
 Ulushi % da <div style="display: flex; justify-content: space-around;"> 58,4 2020- y. </div> <div style="display: flex; justify-content: space-around;"> 48,0 2021- y. </div>	 Ulushi % da <div style="display: flex; justify-content: space-around;"> 39,9 2020- y. </div> <div style="display: flex; justify-content: space-around;"> 50,0 2021- y. </div>

Jami sanoat tarkibida koks va neftni qayta ishslash mahsulotlarini ishlab chiqarish sohasining ulushi – 37,0 % (2020- yil yanvar-aprel oylariga nisbatan fizik hajm indeksi – 63,4 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarish sohasining ulushi – 28,4 % (2020- yil yanvar-aprel oylariga nisbatan fizik hajm indeksi – 109,1 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 17,9 % (2020- yil yanvar-aprel oylariga nisbatan fizik hajm indeksi – 109,3 %), boshqa nometall mineral mahsulotlarni ishlab chiqarishning ulushi – 5,3 % (2020- yil yanvar-aprel oylariga nisbatan fizik hajm indeksi – 108,4 %) ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdag'i mahsulotlarning o'sish sur'ati

2021- yilning yanvar-aprel oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 285,7 ming tonna avtomobil benzini (2020- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 6,8 % ga o'sgan), 7,8 ming tonna kalava ip (10,7 %), 535,7 ming litr aroq mahsulotlari (28,6 %) ishlab chiqarilib, yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.



**Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalarini
tomonidan ayrim turdag'i mahsulotlarni ishlab chiqarish**

Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar-aprel	2021- yil yanvar-aprel	Farqi +/-
Mazut, ming t.	26,2	29,9	3,7
O'simlik yog'i (tozalangan), t.	5495,7	5060,9	-434,8
Paxta,tolasi, t.	44585,0	44978,0	393,0
Yumshoq bug'doy va spelta uni, t.	29480,1	29242,5	-237,6
Quyish uchun tayyor beton,t.	14875,6	3413,9	-11461,7
Avtomobil benzini,ming t.	267,4	285,7	18,3
Paxta chigit, t.	74021,0	69857,0	-4164,0
Yig'ma konstruksiyalar elementlari, t.	7720,6	14249,7	6529,1
Dizel yoqilg'isi, ming t.	236,4	85,5	-150,9

Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish


(2021- yil yanvar-aprel)



To'qimachilik, kiyim va teri mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati (2021- yil yanvar-aprel)

Jami sanoat tarkibida 2020- yilning yanvar-aprel oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 24,4 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 103,7 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2021- yilning yanvar-aprel oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 28,4 % ni, fizik hajm indeksi 9,1 % ga o'sgan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 1479,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Oziq-ovqat va ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati (2021- yil yanvar-aprel)

Jami sanoat tarkibida 2020- yilning yanvar-aprel oylarida oziq-ovqat va ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 13,0 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 100,2 % ni tashkil etgan bo'lsa,

2021-yilning yanvar-aprel oylari yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat va ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 17,9 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 9,3 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 934,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish **(2021- yil yanvar-aprel)**

Jami sanoat tarkibida 2020- yilning yanvar-aprel oylarida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 3,5 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 10,6 % ga kamaygan bo'lsa, 2021- yilning yanvar-aprel oylari yakunlariga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning sanoat tarkibidagi ulushi 5,3 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 8,4 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 275,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoati **(2021- yil yanvar-aprel)**

Jami sanoat tarkibida 2020- yilning yanvar-aprel oylarida ushbu yo'nalishda mahsulot ishlab chiqarishning ulushi 1,7 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 19,8 % ga kamaygan bo'lsa, 2021- yilning yanvar-aprel oylari yakunlariga ko'ra, shu turdag'i mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 2,1 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 40,6 % ga kamaydi va ishlab chiqarish hajmi 111,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Elektr, gaz, bug' bilan taminlash va havoni konditsiyalash


2021- yilning yanvar-aprel oylarida



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 169,5 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining (3,2 % ini) tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-aprel oyida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 18,4 % ga oshganligi kuzatildi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da



Elektr, gaz, buq' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar-aprel	2021- yil yanvar-aprel	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	2,1	2,3	0,2
Issiqlik energiyasi, ming gkal	413,3	433,1	19,8

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 50,0 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,0 % ini) tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da




Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar-aprel	2021- yil yanvar-aprel	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln.so'm	3279,6	6010,1	2730,5
Axlat o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln.so'm	123,5	163,0	39,5

O'tgan yilning mos davriga nisbatan oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 83,3 % ga oshganligi kuzatildi.

Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2162,7 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2020- yilning mos davriga nisbatan 18,1 % ga oshdi, uning jami sanoatdagi ulushi 41,5 % ni tashkil etdi.



Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 2,6 % (2020- yil yanvar-aprel oylarida 2,1 %)ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qorovulbozor tumaniga to'g'ri kelib, 21,3 % ni, shuningdek, Buxoro shahri 19,5 % ni, G'ijduvon tumani 10,8 % ni, Kogon tumani 7,1 % ni, Jondor tumani 7,0 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (118,1 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Kogon (207,6 %), Olot (147,1 %) tumanlarida, Buxoro shahri (140,8 %) va Kogon shahri (122,5 %) da qayd etildi.

**Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**
2021- yilning yanvar-aprel oylarida

	Mird. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	2162,7	100,0	118,1
Buxoro viloyati			
	Mird. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	45,1	2,1	147,1
Olot			
	Mird. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	63,0	2,9	116,7
Peshku			
	Mird. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	111,5	5,2	105,6
Buxoro			
	Mird. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	74,4	3,4	108,5
Romitan			
	Mird. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	101,5	4,7	108,3
Vobkent			
	Mird. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	152,1	7,0	100,0
Jondor			
	Mird. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	233,6	10,8	105,9
G'ijduvon			
	Mird. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	152,4	7,1	207,6
Kogon			
	Mird. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	422,1	19,5	140,8
Shofirkon			
	Mird. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	115,1	5,3	120,7
Buxoro sh.			
	Mird. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	95,6	4,4	100,0
Qorako'l			
	Mird. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	136,3	6,3	122,5
Kogon sh.			
	Mird. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	460,0	21,3	106,9
Qorovulbozor			

Hududlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qorovulbozor tumaniga to'g'ri kelib, 33,0 % ni, shuningdek Buxoro shahri 20,2 % ni, G'ijduvon tumani 10,8 % ni hamda Kogon tumani 5,7 %, Vobkent tumani 5,4 %, ni tashkil etdi.

Shuningdek, nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida yuqori ko'rsatkich Olot tumani (194,2 %), Kogon shahri (166,7 %), Buxoro shahri (153,2 %) ,hamda Kogon tumanida (149,2 %) qayd etildi.

**Hududlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**
2021-yilning yanvar-aprel oylarida

	Mird. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	1377,2	100,0	120,3
Buxoro viloyati			
	Mird. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	27,4	2,0	194,2
Olot			
	Mird. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	57,9	4,2	101,4
Buxoro			
	Mird. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	74,2	5,4	109,1
Vobkent			
	Mird. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	148,7	10,8	116,7
G'ijduvon			
	Mird. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	78,8	5,7	149,2
Kogon			
	Mird. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	29,3	2,1	83,8
Qorako'l			
	Mird. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	454,5	33,0	106,8
Qorovulbozor			
	Mird. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	26,0	1,9	110,6
Peshku			
	Mird. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	40,0	2,9	106,2
Romitan			
	Mird. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	51,7	3,8	105,7
Jondor			
	Mird. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	55,3	4,0	138,8
Shofirkon			
	Mird. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	278,5	20,2	153,2
Buxoro sh.			
	Mird. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	54,9	4,0	166,7
Kogon sh.			

Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Buxoro shahriga to'g'ri kelib, 18,3 % ni, shuningdek, Jondor tumani 12,8 % ni, G'ijduvon tumanida 10,8 % ni, Kogon shahrida esa 10,4 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida eng yuqori ko'rsatkich Kogon tumanida (357,7 %) , Buxoro shahrida (121,7 %) hamda Peshku tumanida (121,4 %) qayd etildi.

**Hududlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**
2021- yilning yanvar-aprel oylarida

	<i>Mird. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>
	785,5	100,0	114,5
Buxoro viloyati			
	<i>Mird. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>
	17,7	2,2	106,9
Olot			
Peshku			
	<i>Mird. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>
	53,6	6,8	110,4
Buxoro			
Romitan			
	<i>Mird. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>
	27,3	3,5	106,2
Vobkent			
Jondor			
	<i>Mird. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>
	84,9	10,8	91,2
G'ijduvon			
Shofirkon			
	<i>Mird. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>
	73,6	9,4	357,7
Kogon			
Buxoro sh.			
	<i>Mird. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>
	66,3	8,4	109,4
Qorako'l			
Kogon sh.			
	<i>Mird. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>
	5,5	0,7	115,5
Qorovulbozor			

**Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar
tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish**
2021- yilning yanvar-aprel oylarida

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 597,7 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarining umumiy ishlab chiqarishdagi tutgan ulushi 11,5 % ni tashkil etdi.


Buxoro viloyati hududlari kesimida sanoat ishlab chiqarishi hajmlari

2021- yil yanvar-aprel oylarida

	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	5207,3	100,0	86,6
Buxoro viloyati *			
	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	131,5	2,5	105,1
Olot			
	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	125,4	2,4	103,2
Buxoro			
	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	102,3	2,0	101,6
Vobkent			
	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	432,7	8,3	96,7
G'ijduvon			
	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	298,2	5,7	114,1
Kogon			
	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	162,7	3,1	94,6
Qorako'l			
	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	1998,5	38,4	73,8
Qorovulbozor			
	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	140,3	2,7	103,8
Peshku			
	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	384,8	7,4	106,1
Romitan			
	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	194,7	3,7	102,2
Jondor			
	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	200,7	3,9	108,7
Shofirkon			
	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	739,7	14,2	113,6
Buxoro sh.			
	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	295,8	5,7	103,0
Kogon sh.			

* Hududlar bo'yicha taqsimlanmagan ma'lumotlarni qo'shgan holda

**Buxoro viloyati hududlari kesimida ishlab
chiqarish fizik hajm indeksi, iste'mol mahsulotlari
ishlab chiqarishning o'sish sur'ati % da**




Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish Kogon tumanida (2020- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 114,1 %), Buxoro shahrida (113,6 %), Shofirkon (108,7 %) va Romitan (106,1 %) tumanlarida sezilarli darajada oshdi.

Viloyat sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish ko'rsatkichlarining o'tgan yilning shu davriga nisbatan pasayish omili bolib Qorovulbozor (2020- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 73,8 %) tumanida ishlab chiqarish hajmlarining kamayishi kuzatildi.

Buxoro viloyati jami sanoat mahsulotlari hajmida hududlarning ulushi, % da

Viloyat sanoat ishlab chiqarishi hajmi tarkibida eng ko'p ulush Qorovulbozor tumani (Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmining 38,4 % i), Buxoro shahri (14,2 %), G'ijduvon tumani (8,3 %), Romitan tumani (7,4 %), Kogon shahar (5,7 %) hamda Kogon (5,7 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Eng past ko'rsatkich esa Buxoro (2,4 %) hamda Vobkent (2,0 %) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.



Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Qorovulbozor tumani (107447,7 ming so'm), Kogon shahri (4801,8 ming so'm) va Kogon tumani (3750,2 ming so'm) o'rтacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (2671,1 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Viloyat bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 1109,4 ming so'm bo'lGANI holda, Qorovulbozor tumanida – 24734,4 ming so'mni, Kogon shahrida – 2213,4 ming so'mni, Kogon tumanida – 1916,9 ming so'mni, Buxoro shahrida 1498,8 ming so'mni tashkil etdi.



**Aholi jon boshiga to‘g’ri keladigan sanoat mahsulotlari
va iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish**
2021- yil yanvar-aprel, ming so‘m

	Sanoat mahsulotlari		Iste’mol mahsulotlari	
		2671,1		1109,4
Buxoro viloyati				
	Sanoat mahsulotlari	Iste’mol mahsulotlari		
	1313,2	450,1		
Olot			Peshku	
	Sanoat mahsulotlari	Iste’mol mahsulotlari		
	741,1	659,1		
Buxoro			Romitan	
	Sanoat mahsulotlari	Iste’mol mahsulotlari		
	723,1	717,2		
Vobkent			Jondor	
	Sanoat mahsulotlari	Iste’mol mahsulotlari		
	1407,1	759,7		
G‘ijduvon			Shofirkon	
	Sanoat mahsulotlari	Iste’mol mahsulotlari		
	3750,2	1916,9		
Kogon			Buxoro sh.	
	Sanoat mahsulotlari	Iste’mol mahsulotlari		
	984,1	578,2		
Qorako‘l			Kogon sh.	
	Sanoat mahsulotlari	Iste’mol mahsulotlari		
	107447,7	24734,4		
Qorovulbozor				

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi 2021- yil yanvar-aprel, % da

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 1792,2 mlrd. so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 34,4 % ni tashkil etdi.


Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Vobkent tumanida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Jondor (100,0 %), Buxoro (99,9 %), Kogon (97,7 %), hamda Shofirkon (71,1 %) tumanlarida kuzatildi.



Viloyatimiz hududlari kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni ko'rsatdiki, Qorovulbozor tumani (1,5 %) va Romitan tumani (22,1 %) sanoat ishlab chiqarish hajmidagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hudularda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.

Viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini
(2020- yil 1- may holatiga ko'ra)

Bugungi kunda viloyatda 4698 ta sanoat korxonalarini faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 1278 tasi (faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiyligining 27,3 % i) Buxoro shahriga, 615 tasi (13,1 % i) G'ijduvon tumaniga, 372 tasi (7,9 % i) Buxoro tumaniga, 364 tasi (7,7 % i) Kogon tumaniga, 327 tasi (7,0 % i) Jondor tumaniga, 316 tasi (6,7 % i) Romitan tumaniga, 294 tasi (6,3 % i) Shofirkon tumaniga to'g'ri kelmoqda.



2020- yilning yanvar-aprel oylarida viloyatda 509 ta yangi sanoat korxonalarini tashkil etildi, shulardan 87 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini hajmidagi ulushi 17,1 %) G'ijduvon tumanida, 86 tasi (16,8 %) Buxoro shahrida, 48 tasi (9,4 %) Shofirkon tumanida, 41 tasi (8,1 %) Romitan tumanida, 41 tasi (8,1 %) Vobkent tumanida tashkil etildi.